

B-01-07/577
04.11.2025yil

“TASDIQLAYMAN”

Viloyati hokimi,
viloyat mahallani qo‘llab-quvvatlash
kengashi raisi



M.B.Azimov

2025 yil “04” noyabr

Viloyat mahallani qo‘llab-quvvatlash kengashi yig‘ilishning

B-01-07/577 - son BAYONI

Raislik qiluvchi:

M.B.Azimov - viloyat hokimi, viloyat mahallani
qo‘llab-quvvatlash kengashi raisi

Ishtirok etganlar:

viloyat hokimining tegishli o‘rinbosarlari, kotibiyat
mudirlari, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat
boshqarmasi, viloyat mahallani qo‘llab-quvvatlash
kengashi a‘zolari, tuman (shahar) hokimlari (ro‘yxat
bo‘yicha)

KUN TARTIBI:

**Respublika mahallani qo‘llab-quvvatlash kengashining 2025-yil
27-oktyabrdagi “Mahallalar o‘rtasida “Obod xonadon, “Obod ko‘cha” va
“Obod mahalla” ko‘rik tanlovini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”
13-son majlis bayoni ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida**

(Azimov, Qobilov, Ravshanov, Axmedov, Qurbonov, Karamova, Ro‘ziev,, Azimov)

Mahallalarda xonadon va ko‘chalarning obodlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish, aholi orasida sog‘lom-turmush tarziga rioya etish orqali “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etish bo‘yicha mahalla raislarining ilg‘or tajribalarini ommalashtirish, tizim xodimlarining faoliyat samaradorligini oshirish hamda namunali mahallalar doirasini kengaytirish, mahalliy o‘z faoliyatida sezilarli yutuqlarga erishayotgan mahalla raislari faoliyatini rag‘batlantirish maqsadida yig‘ilish

QAROR QILADI:

1. Respublika mahallani qo‘llab-quvvatlash kengashining 2025-yil 27-oktyabrdagi “Mahallalar o‘rtasida “Obod xonadon, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” ko‘rik tanlovini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida” 13-son majlis bayoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

ko‘rik-tanlovni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha respublika tashkiliy qo‘mitasining tarkibi **1-ilovaga**;

hududiy va tuman (shahar)lar tashkiliy qo‘mitalarining namunaviy tarkiblari **2-3-ilovalarga**;

ko'rik-tanlovni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi (O.Ravshanov)ning: 2025-yil **noyabr oyida** viloyat miqyosida mahalla (shaharcha, qishloq, ovul) fuqarolar yig'inlari raislari, ko'chaboshilar va xonadon egalari orasida **"Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" ko'rik-tanlovini uch bosqichda tashkil etish va o'tkazish;**

1-bosqich mahalla bosqichi - **10-15-noyabr** kunlari;

2-bosqich (tuman/shahar bosqichi) - **16-25-noyabr** kunlari;

3-bosqich viloyat - **26-30-noyabr** kunlari o'tkazish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

4. "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" ko'rik tanlovini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha viloyat tashkiliy qo'mitasi tarkibi **1-ilovaga;**

"Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" ko'rik tanlovini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tuman (shahar) tashkiliy qo'mitasi namunaviy tarkibi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5. O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi (**O.Ravshanov**), tuman (shahar) mahallani qo'llab-quvvatlash kengashlari raislariga:

uch kun muddatda ko'rik-tanlovning quyi bosqichlarini yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tuman shahar mahallani qo'llab-quvvatlash kengashlari vig'ilishlarini o'tkazsin va tegishli vazifalarni belgilasin hamda tuman shahar tashkiliy qo'mitalar va hakamlar hay'atining tarkiblarini tasdiqlasin;

ko'rik-tanlov bosqichlarini yuqori saviyada tashkil etishga ko'maklashish hamda tuman shahar tashkiliy qo'mitalar va hakamlar hay'ati tarkibida mas'ullarning to'laqonli ishtirokini ta'minlasin;

ko'rik-tanlovning viloyat bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritgan mahalla raislari, ko'chaboshilar va xonadon egalari hamda ko'rik-tanlovni o'tkazishga taklif etilganlarni O'zbekiston mahallalari uyushmasining tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari mas'ulligida xavfsizligini ta'minlagan holda ko'rik-tanlovni o'tkazish joyiga belgilangan muddatlarda kelishlari va ketishlari bilan bog'liq masalalarni tashkillashtirsin;

bir hafta muddatda ko'rik-tanlovning viloyat bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritgan mahalla raislarini ko'chaboshilarni va xonadon egalarini ko'rik-tanlov o'tkaziladigan hududlardagi namunali mahallalar faoliyati hamda diqqatga sazovor joylar bilan tanishtirish bo'yicha dastur ishlab chiqish va amalga oshirsin;

"Hunarmand" uyushmasining tuman shahar bo'limlari bilan hamkorlikda ko'rik-tanlov o'tkaziladigan bino foyesiga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga oid milliy hunarmandchilik mahsulotlari ko'rgazmalarini tashkil etsin;

O'zbekiston mahallalari uyushmasining buyurtmasiga asosan ko'rik-tanlov ishtirokchilari uchun avtobuslar tashkil etish choralari ko'rsin;

ko'rik-tanlovning 1-bosqichida tuman (shahar)lardagi barcha mahalla raislarining ishtirokini ta'minlasin;

tanlov yakunlaridan so'ng 776 ta mahallani baholash va reytingini chiqarsin.

6. O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi (O.Ravshanov):

uch kun muddatda ko'rik-tanlov Nizomida belgilangan shartlar bo'yicha yo'nalishlar, savollar ro'yxatini ishlab chiqilishi hamda viloyat tashkiliy qo'mitasining qarori bilan tuman (shahar) tashkiliy qo'mitalariga yetkazilishini ta'minlasin;

ko'rik-tanlov yakunlari haqidagi batafsil ma'lumotlarni, shuningdek mahallalar faoliyatini takomillashtirishga oid ishtirokchilarning taklif-mulohazalarini umumlashtirgan va tahlil qilgan holda viloyat mahallani qo'llab-quvvatlash kengashiga taqdim etsin;

Zarur hollarda, viloyat tashkiliy qo'mitasi yig'ilishi qarori bilan ko'rik-tanlov Nizomiga hamda uning bosqichlarini o'tkazish muddatlariga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishini ta'minlasin.

beshtun muddatda ushbu yig'ilish bayonida belgilangan chora-tadbirlarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda tuman (shahar) tashkiliy qo'mita a'zolari ishtirokida ko'rik-tanlov bosqichlarini o'z vaqtida hamda yuqori saviyada o'tkazilishini ta'minlash bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni belgilasin;

Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi (**U.Azimov**), Ichki ishlar boshqarmasi (**A.Ismoilov**), viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (**F.Mirzayev**) bilan birgalikda musobaqani Vazirlar Mahkamasining "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2014-yil 29-iyuldagi 205-son qarorida belgilangan tartibda o'tishini ta'minlasin hamda musobaqa davomida yo'l patrul xizmati kuzatuvini tashkil etsin;

viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi (**N.Qurbonov**), Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi viloyat boshqarmasi (**T.Rasulov**) bilan birgalikda ko'rik-tanlov bosqichlari o'tadigan binolarda tez tibbiy yordam brigadalari navbatchiligini hamda tadbir o'tadigan joylarni sanitariya qoidalari va gigiyenik normativlariga mos bo'lishini ta'minlasin;

Madaniyat boshqarmasi (**I.To'rayev**), viloyat teleradiokanali (**J.To'ychiyev**) bilan birgalikda ko'rik-tanlovning viloyat bosqichini o'tkazish uchun konsert dasturini tayyorlash hamda joylarda taniqli san'atkorlar va badiiy jamoalar chiqishini ta'minlash, shuningdek, ko'rik-tanlovlarni yuqori saviyada tashkil etish maqsadida malakali rejissyor va boshlovchilarni jalb etishda hamkorlikni amalga oshirsin.

7. Ko'rik-tanlovni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha viloyat va tuman (shahar) tashkiliy qo'mitalar a'zolariga:

tasdiqlangan jadvalga muvofiq ko'rik-tanlovni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq chora-tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini nazorat qilsin, hududlarda hakamlar hay'ati tomonidan ishtirokchilarning faoliyatini va chiqishlarini qonuniylik, oshkoralik, adolatlilik, tenglik kabi asosiy prinsiplarga rioya qilgan holda baholanishini tashkil etsin;

ko'rik-tanlov yakunlari bo'yicha batafsil ma'lumotlarni, shuningdek ishtirokchilarning mahalla raisi faoliyatini yanada takomillashtirish borasidagi fikr-mulohazalarini O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

8. Viloyat teleradiokanali (J.To'yehiyev) ko'rik-tanlov jarayonlarini, mahalla raislarining qonun hujjatlarida belgilangan vazifalar ijrosini joylarda to'laqonli ta'minlash, aholining ma'rifiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, hududlarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tavsiya etilsin.


9. O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi (O.Ravshanov) ko'rik-tanlovning viloyat bosqichida g'olib bo'lgan ishtirokchilarni Respublika bosqichida to'liq ishtirokini ta'minlasin.

10. Mazkur yig'ilish bayoni ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari A.Qobilov va O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi boshlig'i O.Ravshanov zimmasiga yuklansin.


Bayonlashtirdi



I.Norqulov



(O. Ravshanov)



**“Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” ko‘rik-tanlovini tashkil
etish va o‘tkazish bo‘yicha viloyat tashkiliy qo‘mitaning
TARKIBI**

№	F.I.Sh.	Ish joyi va lavozimi
1.	B.Raximov	“Nuroni” jamg‘armasining viloyat bo‘limi raisi, <i>viloyat tashkiliy qo‘mita raisi</i>
2.	A.Qobilov	Viloyat hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, <i>viloyat tashkiliy qo‘mita raisining o‘rinbosari</i>
3.	O.Ravshanov	O‘zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi boshlig‘i, <i>viloyat tashkiliy qo‘mita raisining o‘rinbosari</i>
viloyat tashkiliy qo‘mita a‘zolari:		
4.	Z.Aminova	Viloyat hokimining o‘rinbosari - Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig‘i
5.	J.Raxmankulov	Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi boshlig‘i
6.	A.Axmedov	Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi boshlig‘i
7.	I.To‘rayev	Viloyat madaniyat boshqarmasi boshlig‘i
8.	N.Qurbonov	Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i v.v.b.
9.	U.Oripov	Viloyat maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmasi boshlig‘i
10.	B.Djurayev	Viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi raisi
11.	J.To‘ychiyev	Viloyat teleradiokanali direktori
12.	K.Karamova	Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi viloyat bo‘limi boshlig‘i
13.	N.Rayimqulov	O‘zbekiston mahallalari uyushmasining viloyat boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari, <i>viloyat tashkiliy qo‘mita mas‘ul kotibi</i>

Izoh: Tashkiliy qo‘mita tarkibiga kiritilgan davlat va jamoat tashkilotlarining mas‘ul xodimlari lavozimdan bo‘shaganda yoki boshqa ishga o‘tganda lavozimiga ko‘ra ularning o‘rniga yangi tayinlangan yoki saylangan mas‘ul xodimlar tashkiliy qo‘mita tarkibiga kiritiladi.

**“Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” ko‘rik-tanlovini tashkil
etish va o‘tkazish bo‘yicha tuman (shahar) tashkiliy qo‘mitaning
NAMUNAVIY TARKIBI**

№	F.I.Sh.	Ish joyi va lavozimi
1.		tuman “Nuroni” jamg‘armasi raisi, <i>tuman (shahar) tashkiliy qo‘mitasi raisi</i>
2.		tuman (shahar) hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, <i>tuman (shahar) tashkiliy qo‘mitasi raisining o‘rinbosari</i>
3.		O‘zbekiston mahallalari uyushmasining tuman (shahar) bo‘limi boshlig‘i, <i>tuman (shahar) tashkiliy qo‘mitasi raisining o‘rinbosari</i>
tuman (shahar) tashkiliy qo‘mita a‘zolari:		
4.		tuman (shahar) hokimining o‘rinbosari – oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i
5.		tuman (shahar) “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi direktori
6.		Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo‘limi boshlig‘i
7.		tuman (shahar) madaniyat bo‘limi boshlig‘i
8.		tuman (shahar) tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
9.		tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi boshlig‘i
10.		Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining tuman (shahar) bo‘limi boshlig‘i
11.		tuman (shahar) kasaba uyushmalari raisi
12.		O‘zbekiston mahallalari uyushmasining tuman (shahar) bo‘limi bosh mutaxassisi, <i>tuman (shahar) tashkiliy qo‘mitasi mas‘ul kotibi</i>

Izoh: Tashkiliy qo‘mita tarkibiga kiritilgan davlat va jamoat tashkilotlarining mas‘ul xodimlari lavozimdan bo‘shaganda yoki boshqa ishga o‘tganda lavozimiga ko‘ra ularning o‘rniga yangi tayinlangan yoki saylangan mas‘ul xodimlar tashkiliy qo‘mita tarkibiga kiritiladi.